



TO'LIQSIZ FE'LLARNING USLUBIY BELGILARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11109775>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 29th April 2024

Published: 3rd May 2024

KEYWORDS

*Fe'l, zamon, to'liqsiz fe'llar,
yetakchi fe'l, ko'makchi fe'l*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada fe'l zamonlarining o'tgan zamon shaklini
hosil qilishda to'liqsiz fe'llarning qanchalik ahamiyatli
ekanini bilib olamiz.*

¹Ish-harakat va holatni ifodalab keladigan so'z turkumi fe'l deyiladi. O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhga ega: a) mustaqil fe'l; b) nomustaqil fe'l. Mustaqil fe'lga quyidagi xususiyat xos:

- 1) lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi va shu boisdan gapda biror bo'lak vazifasida keladi;
- 2) biror so'zni boshqarib (kitobni o'qidi) yoki biror so'z tomonidan boshqarilib (o'qilgan kitob) keladi;
- 3) harakatning obyektga munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) o'timli fe'l; b) o'tim siz fe'l
- 4) fe'l ifodalagan harakat obyektiv borliq hodisasi bo'lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so'zlovchi ishtirok etadi. Tilda ifodalangan harakatda, demak, inson munosabati ham mavjud bo'ladi. Bunday munosabat fe'l mayli deb yuritiladi;
- 5) harakat real yoki irreal bo'lishi ham mumkin. Bunga ko'ra, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar farqlanadi;

¹ Sayfullayeva R R, Mengliyev B R, Boqiyeva G H, Qurbonova M M, Yunusova Z Q, Abuzalova M Q Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT-2010

6) har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bo'lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabat nuqtayi nazaridan tavsifi fe'l nisbatlari deb yuritiladi;

7) harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin. Mantiqan zamondan tashqaridagi harakat yo'q. Yuqorida tilga olingan borish fe'lida zamon bevosita ifodalanmagan. Lekin uni gap ichida olsak (Ishga borish lozim) uning kelasi zamonda yuz beradigan harakat ekanligi mantiqan anglashilib turadi. Demak, har qanday fe'lida yo grammatik, yo mantiqiy zamon ifodalanadi. Modomiki, til qurilishini o'rganayotgan ekanmiz, biz uchun grammatik zamon ahamiyatli. Shu boisdan zamonli va zamonsiz fe'lni farqlaymiz;

8) aytilganidek, borliqda harakat, albatta, bajaruvchi bilan bog'lanadi. Biroq uning tildagi ifodasida grammatik shaxs mavjud bo'lmasligi mumkin.

Tildagi mantiqiy va grammatik jihatni bir-biridan farqlashimiz juda ham zarur.

Nomustaqil fe'llar lug'aviy ma'nonga ega emas, lekin o'zidan oldin kelgan so'zning ma'nosiga ta'sir o'tkazadilar. Nomustaqil fe'llar uch guruhga bo'lib o'rganiladi.

²“Payt valentligiga ta'sir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash” - zamon kategoriyasi Voqelikning nutq momentiga munosabatiga qarab uch xil zamon farqlanadi:

a) nutq momentigacha bo'lgan voqelik – o'tgan zamon

b) nutq momentidagi voqelik - hozirgi zamon,

d) nutq momentidan keyin bo'ladigan voqelik - kelasi zamon

1. Yordamchi fe'l-so'z yasaydi
2. Ko'makchi fe'l-fe'lning lug'aviy ma'nosini nutqqa xoslaydi
3. To'liqsiz fe'l- fe'l va boshqa fe'l bo'lmagan so'zlarning zamonini ko'rsatadi.

To'liqsiz fe'llarning lug'aviy ma'nosi bo'lmaydi. Fe'l ikki qismdan tashkil topadi yetakchi va ko'makchi, to'liqsiz fe'llar esa shu yetakchi fe'lning zamon shaklidan keyin qo'shiladi borgan ekan, borgan emish shakllarida bu yerda -gan qo'shimchasi zamoni ifodalayapti. Shaxs son qo'shimchalari ham shu to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: borgan ekansan, borgan emishsan. Yetakchi fe'lga qo'shmasdan ajratib yozamiz, lekin to'liqsiz fe'lida tovush tushoish hodisasi bo'lsa uni qo'shib yozamiz: borar emish-borarmish, borgan edi-borgandi shaklida yoziladi. ³ O'tgan zamon subparadigmasi murakkab shakl yasalishi tizimiga ega bo'lib, dastlab o'tgan zamonning birlamchi yasaliş tizimini va ikkilamchi yasaliş tizimini ajratish kerak. Birlamchi tizim — affikslar bilan yasaliş, sintetik grammatik shakllar tizimi; ikkilamchi tizim — asosan edi

² Sayfullayeva R R, Mengliyev B R, Boqiyeva G H, Qurbonova M M, Yunusova Z Q, Abuzalova M Q Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT-2010

³ Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili TOSHKENT-2006

affiksoidi bilan hosil qilinadigan analitik grammatik shakllar tizimi. Tarixan er- fe'li mavjud bo'lib, keyinchalik bu fe'l leksik ma'no anglatish xususiyatini va shu bilan birga undan turli shakllar yasalishi xususiyatini yo'qotgan. Bu ikki hodisani nazarda tutib ushbu fe'l to'liqsiz fe'l deyiladigan bo'lgan. Hozirgi o'zbek tilida to'liqsiz fe'l degan fe'l yo'q, faqat e- fe'l asosidan hosil qilingan edi, ekan, emish affiksoidlari mavjud. Bulardan tashqari, asosidan hosil qilingan esa, emas ham mavjud bo'lib, allaqachon alohida-alohida til birligiga: esa — ta'kid yuklamasiga, emas — inkor morfemasiga aylangan. Bulardan emas bo'lishsizlik ma'nosini ifodalaydigan affiksoid sifatida ishlatiladi.

Fe'l asosiga qo'shilib, gapda kesim vazifasida kelishiga xoslangan shakllari fe'lning munosabat shakllari yoki sintaktik shakl yasovchilar deyiladi. Buning ham uchta shakli mavjud: Zamon, mayl, shaxs-son.

Birgina so'zning shaxsi bir xil bo'lsa ham zamonlari boshqacha bo'ladi. O'tgan zamon shakllarini bir necha usullar orqali -di, -gan, -b, affikslari orqali hosil qilishimiz mumkin.

⁴Zamon yasallashining analitik shakllari sintetik shakllari tarkibiga asosan edi, qisman ekan, emish affiksini kiritish bilan hosil qilinadi, zamon yasovchisi vazifasini sintetik zamon yasovchisi bilan affiksi birgalikda bajaradi, tuslovchi odatda affiksdan keyin qo'shiladi; natijada edi, ekan, emish, tarkibi yuzaga keladi. Zamon ko'rinishlari bo'yicha edi, -gan edi shakllari eng ko'p, -yotgan edi, -moqda edi shakllari nisbatan oz ishlatiladi: gapini ma'qullar edi, pinhoniyl xayollar og'ushidan chiqmas edi, yuz kishi to'plangan edi, kimdir vahima baqrayib qolgan edi, sovg'asiz kelishganiga ko'ninishayotgan edi, soxta va nosamimiy ko'rinmoqda edi kabi. Nutqda ekan affiksi qatnashuvi bilan yasallish nisbatan ko'proq, emish affiksi qatnashuvi bilan yasallish esa juda oz uchraydi: ko'k choy ichib o'tirgan ekan, bu haqda hech o'ylamagan ekan, qo'zg'alongning boshliqlarini terib olarmish, archalarni shafqatsiz chopayotgan emish kabi.

O'tgan zamonning grammatik shakllarining asosini edi affiksi orqali hosil qilamiz. Bu affiksning o'rniga ekan, emish affikslarini qo'llashimiz ham mumkin. Emish affiksi orqali fikrga "ishonchsizlik" ma'nosi izohlanadi: o'ylagan emish- o'ylaganmish tarzida ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R R, Mengliyev B R, Boqiyeva G H, Qurbonova M M, Yunusova Z Q, Abuzalova M Q Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT-2010
2. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili TOSHKENT-2006
3. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent 1992.
4. Shukurov. Sh "O'zbek tilida fe'l zamonlari taraqqiyoti".-Toshkent-1976.
5. G' Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov "O'zbek tilining tarixiy grammatikasi" - 2008.

⁴ Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili TOSHKENT-2006